

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JIGAR KO'CHIRIB OTKAZISH MUAMMOSI

Nargiza Qoziraximova. Qodrjonovna

Namangan davlat universiteti Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi

Zafarova. Mumtozbegim. Omadbek qizi

Namangan daslat universiteti Tibbiyot fakulteti Pediatriya ishi Ped. BU24. 2-

guruh talabasi

Annotatsiya.

Jigar ko'chirib o'tkazish amaliyoti O'zbekiston sog'lijni saqlash tizimida jadal rivojlanayotgan, biroq muammolar saqlanib qolayotgan yo'nalishlardan biridir. Ushbu amaliyot gepatit, jigar sirrozi, jigar o'smalari kabi kasalliklar tufayli zarur bo'lib, har yili minglab insonlar bunday operatsiyaga muhtoj bo'lmoqda. Asosiy muammolar donor yetishmovchiligi, jarrohlik amaliyotlarining yuqori narxi va maxsus tibbiy jihozlarning cheklanganligi bilan bog'liq. Shuningdek, transplantatsiya bo'yicha malakali mutaxassislar soni yetarli emasligi va aholining bunday xizmatlardan foydalanish imkoniyati cheklangani muhim omillardan biridir. Mamlakatda ushbu muammolarni hal qilish uchun transplantologiya sohasini rivojlantirish, chet eldan mutaxassislarni jalb qilish, ichki malakani oshirish, hamda donorlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jamoatchilikni xabardor qilish va donorlikni targ'ib qilish choralari ham ko'rilmoxda. Ushbu maqolada jigar hastaliklaridagi va transplantatsiyadagi muammolarni yoritishga qaratilgan .

Kalit so'zlar: Transplantatsiya , Avtotransplantatsiya, Avtotransplantatsiya, sirroz, gepatit, labaratoriya, ixtisoslashtirilgan xirurgiya, virusologiya ilmiy tekshirish instituti,Oqsil sintezini ta'minlash, ilmiy-amaliy markazlar.

Аннотация

Трансплантация печени – одно из направлений в системе здравоохранения Узбекистана, которое стремительно развивается, но проблемы остаются. Эта операция необходима из-за таких заболеваний, как гепатит, цирроз печени и опухоли печени, и ежегодно в такой операции нуждаются тысячи людей. Основные проблемы связаны с нехваткой доноров, высокой стоимостью хирургических операций и ограниченностью специального медицинского оборудования. Также одним из важных факторов является недостаточное количество квалифицированных специалистов по трансплантологии и ограниченный доступ населения к таким услугам. Для решения этих проблем в стране необходимо развитие сферы трансплантологии, привлечение специалистов из России. За рубежом важными факторами являются

совершенствование внутренних навыков и формирование донорской культуры. В то же время принимаются меры по информированию общественности и популяризации донорства. В данной статье основное внимание уделяется проблемам заболеваний печени и трансплантации.

Ключевые слова: Трансплантация, Аутотрансплантация, Аутотрансплантация, цирроз печени, гепатит, лаборатория, специализированная хирургия, НИИ вирусологии, обеспечивающий синтез белка, научно-практические центры.

Abstract

Liver transplantation is one of the areas in the healthcare system of Uzbekistan, which is rapidly developing, but problems remain. This operation is necessary due to diseases such as hepatitis, cirrhosis of the liver and liver tumors, and thousands of people need such an operation every year. The main problems are related to the shortage of donors, the high cost of surgical operations and the limited. special medical equipment. Another important factor is the insufficient number of qualified transplant specialists and limited public access to such services. To solve these problems, the country needs to develop the field of transplantology, attract specialists from Russia. Abroad, important factors are the improvement of internal skills and the formation of a donor culture. At the same time, measures are taken to inform the public and popularize donation. This article focuses on the problems of liver diseases and transplantation.

Keywords

Transplantation, Autotransplantation, Autotransplantation, liver cirrhosis, hepatitis, laboratory, specialized surgery, Research Institute of Virology providing protein synthesis, scientific and practical centers.

Liver transplantation is one of the areas in the healthcare system of Uzbekistan, which is rapidly developing, but problems remain. This operation is necessary due to diseases such as hepatitis, cirrhosis of the liver and liver tumors, and thousands of people need such an operation every year. The main problems are related to the shortage of donors, the high cost of surgical operations and the limited. special medical equipment. Another important factor is the insufficient number of qualified transplant specialists and limited public access to such services. To solve these problems, the country needs to develop the field of transplantology, attract specialists from Russia. Abroad, important factors are the improvement of internal skills and the formation of a donor culture. At the same time, measures are taken to inform the public and popularize donation. This article focuses on the problems of liver diseases and transplantation.

Keywords: Transplantation, Autotransplantation, Autotransplantation, liver cirrhosis, hepatitis, laboratory, specialized surgery, Research Institute of Virology providing protein synthesis, scientific and practical centers.

Transplantatsiya ya'ni ko'chirib otkazish o'zi nima uchun kerak? Transplantatsiya bir qancha murakkab jarayon hisoblanadi . Bu jarayonda odam va hayvonlarda patalogik jarayonlarni , turli xil tashqi muhit ta'sirlari natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to'qimalar yoki organlar o'rniga sog'lomini kochirib o'tkazish . Qon quyish ham transplantatsiyaning alohida turi. Transplantatsiyaning 2 xil turi mavjud . Avtotransplantatsiya hamda Allotransplantatsiya kabi turlari mavjud.

Avtotransplantatsiya bu jarayonda inson o'zidagi to'qima yoki hujayralarini o'ziga ko'chirib o'tkaziladi. Misol uchun qovurg'alar tog'ayi burun tog'ayiga yaqin bo'lganligi uchun renoplastika va boshqa operatsiyalarda foydalilanadi. Allotransplantatsiya bu bir turdag'i gen etik jihatdan o'xshash bo'limgan 2 organizm o'rtasidagi organ yoki to'qimalar transplantatsiyasi hisoblanadi. Bunga misol qilib : jigar , buyrak, yurak, opka transplantatsiyalrini misol qilib keltrishimiz mumkin.

Nima uchun jigar ko'chirib o'tkazish zarur ? Jigar ko'chirib o'tkazishning asosiy sabablaridan biri bu jigar sirrozi ya'ni jigar hujayralarining yemirilishi hisoblanadi. Asosan bunga gepatit. B, C , D turlarining og'ir formalari sabab bo'ladi . Jigar sirrozi sekin rivojlanuvchi surunkali kasallik hisoblanadi . Tekshirilganda jigar qattiqlashganligi , funksiyasi buzulganligiga qaramay kishi uzoq vaqt hech qanday og'riq va alomatlarni payqamaydi . Bu kasallik bilan og'rigan bemorlarga parhez buyuriladi . Jigar sirrozi alkagon mahsulotlarini doimiy iste'mol qilish natijasida ham kelib chiqadi. Shunday og'ir holatlarda. jigar transplantatsiyasi amaliyoti buyuriladi .

3 Jigar Transplantatsiyasi Nega Zarur?

Jigar transplantatsiyasi jigar funksiyasining jiddiy buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklarni davolashning eng samarali usuli hisoblanadi. Jigar organizmda muhim vazifalarni bajaradi, jumladan:

Qonni tozalash

Oqsil sintezini ta'minlash Sariqlikni ishlab chiqarish Oziq moddalarni so'rib olish

O'zbekistonda jigar ko'chirib o'tkazishda bir qancha muammolar mavjud . Ularga quidagilarni misol qilib keltirishimiz mukin :

- Donor yetishmovchiligi : Jigar transplantatsiyasi uchun sog'lom donorlarning yetishmasligi . O'zbekistonda donorlik madaniyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi va sog'lom turmush tarziga rioya qilinmasligi kabi muammolari mavjud .

- Malakali mutaxasislarning yetishmasligi : O'zbekistonda jigar transplantatsiyasining yuqori darajali malakali mutaxasislari yetarli emas . Bu esa xalqimizni shu kasallik bilan og'rigan bemorlarni chet elga murojat qilishiga olib keladi . Ba' zan bunga mablag'i yetarli bolmagan insonlarning bu hayotdan ko'z yumishi juda ham ayanchli holat hisoblanadi .

- Asbob- uskunalarning yetishmovchiligi : Bu jarrohlik amaliyoti murakkab

jarayon hisoblanganligi tufayli yuqori darajada rivojlangan tibbiy asbob-uskunalarini va labaratoriya sharoitlari talab etiladi .


- Moliyaviy tanglik: Jigar transplantatsiyasi qimmat operatsiya hisoblanadi

- . Shuningdek operatsiyadan keyingi davolanish va reabilitatsiya xarakatlari ham yuqori hisoblanadi. Jarrohlik amaliyotidan so'ng bemor doim yangi taom iste'mol qilishi zarur . Isitma ya'ni qayta isitilgan taomlar mumkin emas. Bu ham bir qancha miqdorda mablag' talab etadi

- Operatsiyadan keyingi parvarish muammosi: Jigar ko'chirib o'tkazilgandan so'ng bemorning immunitet tizimi o'zgarishi sababli maxsus dori-darmonlarni doimiy qabul qilishi talabi sababli reabilitatsiya va kuzatuv jarayoni alohida e'tibor talab etadi . O'zbekistonning barcha shaharlarida transplantatsiyadan keyingi yuqori sifatli parvarish ko'rsatish imkoniyati yetarlicha qoniqarli emas.

Ta'kidlanishicha, mazkur xastalik O'zbekistonning mintaqaviy patologiyasi, hududda ko'p uchraydigan kasalliklar sirasiga kiradi. Ushbu dardni davolashning eng maqbul chorasi esa a'zo ko'chirib o'tkazish, ya'ni jigartransplantatsiyasidir. Shu boisdan akademik V.Vohidovnomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti o'rtasidagi hamkorlik memorandumi doirasida diffuz jigar kasalligi bilan kasallangan bemorlar sonini tahlil qilish yo'lga qo'yilgan.

statistika malumotlari bilan tanishib chiqsak:



bemorlar soni ortana sayin transplantatsiya qilingan organismzlar soni ham ortmoqda bu juda yaxshi yangiliklardan hisoblanadi.

O‘zbekistonda jigar transplantatsiyasi sohasida muhim yangiliklar kuzatilmoqda. 2024-yilda mamlakatda transplantatsiya amaliyotlarini mustaqil ravishda o‘tkazish bo‘yicha qadamlar qo‘yildi. Jumladan, Buxoro viloyatida jigar sirrozi bilan xastalangan bemorga uning yaqin qarindoshidan jigar ko‘chirib o‘tkazildi. Bu operatsiya O‘zbekistonda ilk bor mahalliy mutaxassislar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirildi. Bemor va donorning ahvoli yaxshi ekani ma’lum qilingan.

Shuningdek, Toshkentdagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya markazi va Rossiyaning transplantatsiya markazlari bilan hamkorlik doirasida malaka oshirish ishlari davom etmoqda. Bu mahalliy mutaxassislarning tajribasini oshirish va transplantatsiya amaliyotlarini kengroq joriy qilish imkonini bermoqda.

Davlat tomonidan transplantatsiya dasturini rivojlantirishga e’tibor kuchaytirilib, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish o‘rniga mahalliy shifokorlarni tayyorlash va amaliyotni kengaytirish maqsad qilinmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston va Niderlandiya o‘rtasida ham mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha kelishuvlar mavjud.

Namangan viloyati va O‘zbekistonning boshqa hududlarida transplantologiya sohasida muhim yangiliklar kuzatilmoqda. 2024-yilda mamlakatda jigar

transplantatsiyasi sohasini rivojlantirish uchun viloyatlardagi imkoniyatlarni kengaytirish rejalashtirilgan. Shuningdek, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida buyrak transplantatsiyasi bo'yicha markazlar tashkil etish rejasи mavjud. Bu jarayon transplantologik xizmatlar geografiyasini kengaytirish va malakali jarrohlik xizmatlariga kirishni yaxshilashga yordam beradi.

Namangan viloyatida transplantatsiya bilan bog'liq amaliyotlar asta-sekin yo'lga qo'yilmoqda, ammo sohada ba'zi qiyinchiliklar, jumladan, malakali mutaxassislarning yetishmasligi va zamonaviy laboratoriyalarning yo'qligi qiyinchilik tug'dirmoqda. Shu sababli hukumat transplantologiya bo'yicha maxsus ilmiy-amaliy markazlar tashkil etishni ko'zda tutmoqda.

Muammolarni Bartaraf Etish Yo'llari

O'zbekistonda jigar transplantatsiyasi sohasidagi muammolarni bartaraf etish uchun bir qator choralar ko'riliishi kerak:

1. *Donorlik Madaniyatini Rivojlantirish*

Jamoatchilik ongida donorlikning ahamiyati to'g'risida keng miqyosli tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Bu jarayon aholi orasida organ donori bo'lishga nisbatan ishonchsizlikni yo'qotishga yordam beradi.

2. *Malakali Mutaxassislar Sonini Ko'paytirish*

Jigar transplantatsiyasi sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha dasturlarni joriy etish va mavjud mutaxassislarning malakasini oshirishga e'tibor qaratish lozim.

3. Zarur Tibbiy Asbob-Uskunalar va Labaratoriya Sharoitlarini Ta'minlash

Jigar transplantatsiyasi uchun zarur bo'lgan zamonaviy tibbiy asbob- uskunalar va labaratoriya sharoitlarini ta'minlash davlat tomonidan amalga oshirilishi kerak.

4. *Jigar Transplantatsiyasi Xarajatlarini Kamaytirish*

Jigar transplantatsiyasi xarajatlarini kamaytirish uchun davlat va xususiy sektordan qo'shimcha mablag'lar jalb qilinishi kerak. Shuningdek, bemorlarga moliyaviy yordam ko'rsatish dasturlarini yaratish ham muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, operatsiyadan keyingi parvarish xizmatlarini yaxshilash uchun maxsus klinikalar va markazlar tashkil etilishi kerak. Bu bemorlarga yuqori sifatli parvarish xizmatlari va davolanishni ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa va Tavsiyalar

O'zbekistonda jigar transplantatsiyasi sohasi hali rivojlanishning boshlang'ich bosqichida. Donor yetishmovchiligi, malakali mutaxassislar etishmasligi, tibbiy asbob- uskunalar tanqisligi, moliyaviy qiyinchiliklar va operatsiyadan keyingi parvarish xizmatlarining sifati pastligi jigar transplantatsiyasi sohasidagi eng muhim muammolar hisoblanadi.

Shu bilan birga, bu sohaga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj ortib bormoqda. Donorlik madaniyatini rivojlantirish, mutaxassislarni tayyorlash, asbob- uskunalarini

modernizatsiya qilish, moliyaviy yordamni oshirish va reabilitatsiya xizmatlarini yaxshilash - bu muammolarning echimini topish uchun zarur choralar hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. **Medicine, Dentistry, Nursing & Allied Health (2006). Liver Diseases (2 Vols.) Biochemical Mechanisms and New Therapeutic Insights**
<https://doi.org/10.1201/9781482280395>
2. Book By Michael R. Lucey, James Neuberger, Abraham Shaked. (2003)
<https://doi.org/10.1201/9781498712699>
3. Experimental Liver Transplantation By Naoshi Kamada (1988)
<https://doi.org/10.1201/9780429263620>
4. **K. S. Mouleeswaran , Joy Varghese , Mettu Srinivas Reddy Atlas of Basic Liver Histology for Practicing Clinicians and Pathologists**
<https://link.springer.com/book/10.1007/978-981-99-5762-0>
5. **Peri-operative Anesthetic Management in Liver Transplantation (2023) Vijay Vohra, Nikunj Gupta, ... Seema Bhalotra**
<https://link.springer.com/book/10.1007/978-981-19-6045-1>